

OGAHIYNING TARJIMA MAHORATI

(“YUSUF VA ZULAYHO” ASARI MISOLIDA)

Bugungi globallashuv jarayonida yoshlarni har tomonlama ilmiy va barkamol bo'lib yetishishlari uchun yurtimizda keng ko'lamda ishlar olib borilmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev aytganlaridek, “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz.

Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohaga bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”¹.

Bugungi kunda qadimiy va o'rta asrlarda yaratilgan asarlar qo'lyozmalarini qaytadan tiklash, ularni o'rganish hamda ilmiy muomulaga kiritish borasida qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ma'lumki, o'rta asrdagi adabiyot, ilm-fan keyingi asrlarga ham o'ziga xosligi bilan qiziqish kasb etgan. Jomiy, Sa'diy, Firdavsiy va boshqa fors-tojik tillarda ijod qilgan yozuvchilarning asarlari qator tarjimonlar tomonidan o'z davridan boshlab turkiy tillarga tarjima qilina boshlangan. Jomiy tomonidan yozilgan “Yusuf va Zulayho” yillar davomida adabiyot ixlosmandlarini o'ziga chorlab keldi. Bu asarlarni to'g'ridan-to'g'ri o'qish har doim ham oson bo'lmagan. Shu bois yaratilgan asarlar o'z o'quvchisiga yetib borishi uchun tarjimaga ehtiyoj seziladi. Shu maqsadda ko'plab tarjimalar amalga oshiriladi. Qardosh xalqlar adabiyotidan qilingan tarjimalar orasida Ogahiy tarjimalari e'tiborga molikdir.

Ogahiy tarjimasi uchun asos qilib olingan Jomiyning “Yusuf va Zulayho” dostoni fors-tojik va turkiy tillarda bu mavzuda yozilgan asarlarning eng mukammali, ayni

¹ Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent, 2017. –B. 14.

zamonda, badiiy jihatidan eng kuchlisi hisoblanadi. Shuning uchun ham bu doston Yaqin va O'rta Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan va katta shuhrat qozongan. Bu asarning xalq o'rtasida bunday shuhrat qozonishining sababi shunda ediki, Jomiy bu syujet orqali hayot va inson haqida, insonning turmushdagi o'rni va burchi haqida o'zining ajoyib orzu-umidlarini yorqin obrazlarda zo'r mahorat bilan so'zlagan edi.

Ogahiy dostonning g'oyaviy asoslarini to'liq saqlab qoldi, badiiy xususiyatlarini yuksak iste'dod va mahorat bilan o'zbek tilida aks ettirdi. Asarning asosiy g'oyaviy-badiiy xususiyatlari o'zgarmaydi, asar qiymatiga putur etmaydi. Aksincha, Ogahiy o'z iste'dodi orqasidan asliyatdan hech ham qolishmaydigan o'zbekcha variantini yaratishga muvaffaq bo'ladi.

1971 yili Toshkentda nashr etilgan "Abdurahmon Jomiy" kitobida "Yusuf va Zulayho" dostonidan bir parcha shoir Nazarmat tarjimasida e'lon qilindi. Olimjon Bo'riev esa 1964 yil, Dushanbening "Irfon" nashriyotida bosilgan matnga muvofiq ushbu dostonni tarjima qilgan².

Har uchala adib ham bir dostonni tarjima qilgani bilan ular orasida tafovutlar bisyor. Ammo shoir Nazarmat va Olimjon Bo'rievlarning tarjimalarida o'xshash jihatlar ham yo'q emas. Quyida dostonning boshlanish misralarini solishtirib ko'ramiz:

Jomiy tomonidan yozilgan:

الہی غنچہ ی امید بگشای
گلی از روضہ ی جاوید بنمای
بخندان از لب آن غنچہ باغم
وزین گل عطر پرور کن دماغم³.

Nazarmat tarjimasida:

*Tangri menga ochgin umid g'unchasin,
Ko'rsat jannat bog'i gulin jilvasin.
Yashnat u gul kulkisidan bog'imni,
Bahra oldir isidan dimog'imni⁴.*

Olimjon Bo'riev tarjimasi:

² Абдурахмон Жомий. Юсуф ва Зулайхо. Тошкент: Ўзбекистон КМК нашриёти, 1983.

³ جامی "یوسف و زلیخا" ناشر: نسخه الکترونیک. ص. 3.

⁴ Абдурахмон Жомий. Юсуф ва Зулайхо. Тошкент: Ўзбекистон КМК нашриёти, 1983. –Б.244.

*Umid g'unchasini ochgil ilohi,
Mangu jannat gulin ko'rsatib gohi.
Ul g'uncha labi-la kuldir bog'imni,
Bu guldan xushbo'yroq qil dimog'imni*⁵.

Bundan ko'rinib turibdiki, har ikkala adib ham bir matn asosida bu dostonni tarjima qilganlar. Quyida Jomiy dostonini tarjima qilgan har uchchala adibning Zulayhoga ta'rifi haqida to'xtalamiz:

Jomiy tomidan :

نه مه، هيهات! روشن آفتابی
مه ار وی بر فلک افتاده تابی
چه مد گویم؟ چه جای آفتاب است
که رخشان چشمه اش اینجا سراب است⁶

Ogahiy tarjimasi:

*Dema qiz, durji ismat gavhari, de,
Shahanshahliq spehri axtari de.
Bayon haddi emas vasfi jamoli,
Ko'ngulga kelgusi mahzi xayoli*⁷.

Olimjon Bo'riev tarjimasi:

*Na qiz minorada yulduzdek har choq,
Shohlik qutisidan nur sochar charoq.
Iste'dodim sinab uning xayoli,
Bayonda sig'magay vasfi jamoli*⁸.

Nazarmat tarjimasi:

*Bir qiz emas, shoh burjin baxt yulduzi,
Shoh boyligin porlab turgan baxt ko'zi.
Beqiyosdir husnin vasfin bayoni,*

⁵ Абдурахмон Жомий. Юсуф ва Зулайхо. Тошкент: Ўзбекистон КМК нашриёти, 1983 . –Б.7.

⁶ جامی "یوسف و زلیخا" ناشر: نسخه الکترونیک. ص. 13.

⁷ Жомий. Юсуф ва Зулайхо. Огаҳий таржимаси. 3-жилд. –Б.18.

⁸ Жомий. Юсуф ва Зулайхо. Тошкент. ЎзКМК нашриёти, 1983 . –Б.17.

*Xayolidan sinay sozni bu oni*⁹.

Yuqoridagi parchalardan shu narsa ayon bo‘ladiki, ma’no-mazmun jihatidan tarjimalar o‘rtasida tafovut yo‘q, lekin bayon qilish usuliga ko‘ra Ogahiy tarjimasi qolganlaridan ajralib turadi. Chunki Ogahiy shunchaki tarjima qilmadi, aksincha u bor mahoratini ishga solib originaldan hech ham qolishmaydigan asar yaratishga muvaffaq bo‘ladi.

Keyingi o‘rinlarda ham bu hol yaqqol ko‘zga tashlanadi:

O.Bo‘riev tarjimasida:

*Ishq kamoni har qayonga otsa o‘q,
Uni qalqon bilan to‘sib bo‘lmas, yo‘q.
Ichkarida bo‘lsa agar tiyrxona,
Tashqaridan bo‘lar yuzlab nishona.
Xush erur donolar bu so‘zin aytmoq,
Ishqu mushk taralur yashirsang har choq.
Agar mushkin yuz pardaga o‘rab, to‘y,
Chiqar yuz pardadan g‘ammozi ul bo‘y.
Zulayho sevgisin maxfiy asrabon,
Ko‘ksiga g‘am tuxmin ekardi pinhon*¹⁰.

Nazarmat tarjimasi:

*Ishq kamonin o‘qi tushsa qaerga,
Uni so‘rmoq to‘g‘ri kelmas tadbirga.
Ichi o‘qqa bo‘lmaganda ham nishon,
Tashqaridan ko‘rsatadi yuz ming jon.
Ishq ko‘yidan qissa so‘zlamoq ma‘qul,
Ishq mushkinin so‘zlamoq – yaxshi butkul.
Yuz qavat pardaga o‘ralgan bilan,
Mushkning hidini tarqab derki: “Mana man”
Ishqni pinhon tutar erdi Zulayho,*

⁹ Жомий. Юсуф ва Зулайхо. Тошкент. Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1971 .-Б.254.

¹⁰ Жомий. Юсуф ва Зулайхо. Тошкент. ЎзКМК нашриёти, 1983 . -Б.27.

*G'am urug'in qalbg'a etar yashirin jo*¹¹.

Bu doston, ayniqsa, o'zining otash muhabbat tarannumi bilan ajralib turadi. Katta-katta boblar Zulayhoning otashin muhabbat tasviriga bag'ishlangan:

Berib bir sarkash ilgiga inonim,

Jafosi birla qilding qasdi jonim.

Solib boshimg'a zulmoti shabi g'am,

Manga ko'rguzmos o'zni uyquda ham.

Chu uyg'oqliq aro ermas qaranim,

Tushimda dog'i bo'lmas hamnishinim.

Yorug' tole' nishonidur ul uyqu,

Ki, onda ko'rgomen ul oyni o'tru.

Ko'zum qilmaydurur uyqulob orom,

*Berurmen baxtim uyqusin ango vom*¹²

Abdurahmon Jomiyning uchinchi dostoni bo'lmish "Yusuf va Zulayho" 1483 yilda yozilgan. Sharqda bu dostonning juda ko'p variantlari mavjud bo'lib, uni qalamga olgan har bir ijodkor asarga biror o'zgarish va yangilik kiritishga harakat qilgan. Jomiyning ushbu asari adabiyotshunoslar talqinicha, taqdirga tan berishga chaqiruvchi asar bo'lmay, aksincha insonni yuksak tuyg'ular yo'lida har qanday kuchlarga qarshi bosib o'tgan musaffo muhabbat g'alabasini madh etuvchi jo'shqin asardir. Ushbu dostonni Ogahiy tomonidan tarjimasi asliyat o'zida aks etgan g'oya va mazmunlarni o'zgarmagan holda tarjima jarayoni amalga oshirilgan. Ogahiydagi tarjimadagi o'ziga xoslikni shu doston huddi Jomiy turkiy tilda va fors tilida o'zi yozgandek kitobxonga taqdim etganligidir. Go'yo Jomiy va Ogahiy asar yaratishda bir xil yondashuvga amal qiladi. Shu sabab ham u asrlar osha xalqimizning eng sevimli dostoni bo'lib kelmoqda. Ayrim ijodkorlar esa Jomiyning "Yusuf va Zulayho"sini o'zbek tiliga tarjima qilib, xalqimiz orasida kengroq yoyilishiga harakat qildilar. Ammo aynan ushbu doston Ogahiy tarjimasidek amalga oshirilgan tarjima amalga oshirilmagan. Uning tarjima asarlari asliyatni turkiy tilda qayta tug'ilishi desak mubolag'a bo'lmaydi.

¹¹ Жомий. Юсуф ва Зулайхо. Тошкент. Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1971 .-Б.264.

¹² Жомий. Юсуф ва Зулайхо. Огаҳий таржимаси. 3-жилд. –Б.35.

Soʻz oxirida shuni aytish mumkinki, Ogahiy nafaqat asarlar yozish bilan birgalikda, adabiyotning eng bebaho asarlarni ham tarjima qilgan. Uning “Yusuf va Zulayho” tarjima asari ham oʻziga xoslik bilan mohirona fors tilidan tarjima qilingan. Ogahiyning adabiy merosini oʻrganish borasida serqirra ishlarni amalga oshirilib kelinmoqda. Uning merosi ham oʻrganib xalqqa taqdim etilishi, bugungi kun kitobxonini shuurini oʻsishiga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent, 2017.
2. Жомий. Юсуф ва Зулайхо. Огаҳий таржимаси. 3-жилд.
3. Жомий. Юсуф ва Зулайхо. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1971.
4. Жомий. Юсуф ва Зулайхо. Тошкент: ЎзКМК нашриёти, 1983.
5. جامی "یوسف و زلیخا" ناشر: نسخه الکترونیک

